FITONIMLAR ISHTIROK ETGAN O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING LISONIY-SEMANTIK VA ETNOMADANIY TALQINI

Satttarova Nargiza Oblanazarovna

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining muhim qismi bo'lgan paremiyalarda ishlatiladigan fitonimlarning lisoniy-semantik tabiati va etnomadaniy qirralari kompleks tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, fitonimlar paremiologik birliklarda oddiy botanik atamalar sifatida emas, balki xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari, axloqiy mezonlari va falsafiy mushohadalarini ifodalovchi kuchli metaforik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada "bug'doy" va "arpa" kabi donli ekinlar orqali ijtimoiy sifat va qadriyatlar, "tut" va "terak" kabi dendronimlar vositasida esa inson xarakteri, mehnatsevarlik va meros fazilatlari qiyosiy o'rganilgan. Fitonimlar maqollarda nafaqat lisoniy birlik, balki o'zbek xalqining dehqonchilik madaniyati, tabiatga bo'lgan munosabati va milliy mentalitetini aks ettiruvchi muhim lisoniy kodlar sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari fitonimlarning maqollar semantikasini boyitishdagi o'rnini hamda ularning tilshunoslikning lingvokulturologiya va onomastika sohalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *fitonim, maqol, paremiologiya, lisoniy-semantik tahlil, etnomadaniylik, metafora, onomastika, konnotatsiya, dehqonchilik leksikasi, milliy mentalitet, lingvokulturologiya, dendronim.*

Аннотация. В данной статье проведено комплексное исследование лингвосемантической природы и этнокультурных аспектов фитонимов, функционирующих в составе узбекских народных пословиц. Актуальность работы обусловлена тем, что фитонимы в паремиологических единицах рассматриваются не просто как ботанические термины, а как мощные метафорические средства, отражающие многовековой жизненный опыт, социальные взгляды и философские размышления народа. В статье «пшеница» и «ячмень», изучаются социальные качества и ценности, а на примере дендронимов «тутовник» и «тополь» сопоставляются человеческий характер и трудолюбие. Фитонимы в пословицах интерпретируются как лингвистические коды, отражающие сельскохозяйственную культуру узбекского народа, его отношение к природе и национальный менталитет. Результаты исследования демонстрируют роль фитонимов в обогащении семантики пословиц и их значение для развития лингвокультурологии и ономастики. Работа подчеркивает глубокую связь между языковой картиной мира и этническим самосознанием через призму народной мудрости.

Ключевые слова: *фитоним, пословица, паремиология, лингвосемантический анализ, этнокультура, метафора, ономастика, коннотация, сельскохозяйственная лексика, национальный менталитет, лингвокультурология, дендроним.*

Abstract. This article presents a comprehensive study of the linguistic-semantic nature and ethnocultural aspects of phytonyms functioning within Uzbek folk proverbs. The relevance of the research stems from the fact that phytonyms in paremiological units are viewed not merely as botanical terms, but as powerful metaphorical tools reflecting the centuries-old life experience, social views, and

philosophical reflections of the people. Phytonyms are classified into four main groups (cereals, dendronyms, melons/gourds, and wild plants), with specific connotative meanings analyzed in each. For instance, units such as "wheat" and "barley" are used to examine social qualities and values, while dendronyms like "mulberry" and "poplar" serve to compare human character and industriousness. Phytonyms in proverbs are interpreted as linguistic codes that reflect the agricultural culture of the Uzbek people, their relationship with nature, and national mentality. The study highlights the role of phytonyms in enriching proverb semantics and their significance for advancing linguoculturology and onomastics. It underscores the profound connection between the linguistic picture of the world and ethnic identity through the lens of folk wisdom.

Keywords: *phytonym, proverb, paremiology, linguistic-semantic analysis, ethnoculture, metaphor, onomastics, connotation, agricultural lexis, national mentality, linguoculturology, dendronym.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda lisoniy birliklarni faqat struktur-grammatik jihatdan emas, balki ularni inson omili, tafakkuri va madaniyati bilan uzviy bog'liqlikda o'rganuvchi antropotsentrik paradigma yetakchi o'ringa chiqdi [1:34]. Bu yo'nalishda onomastikaning o'rni beqiyos bo'lib, atoqli otlar (onimlar) shunchaki nomlash vazifasini emas, balki muayyan xalqning dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va etnomadaniy kodlarini o'zida saqlaydigan lisoniy qatlam sifatida namoyon bo'lmoqda [2:104]. Onomastik tizimning muhim tarmoqlaridan biri – fitonimlar (o'simlik nomlari) insoniyatning tabiat bilan ming yillik muloqoti mahsuli bo'lib, ular xalq og'zaki ijodi, xususan, paremiologik birliklarda o'zining yuksak semantik taraqqiyotini ko'rsatadi [3: 45].

Bugungi kunda onimlar tahlilida kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya metodlaridan foydalanish, fitonimlarning maqollar tarkibidagi metaforik ko'chishlarini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda [4: 23]. O'zbek xalq maqollari xalq donishmandligining ixcham va mazmundor shakli bo'lib, ulardagi fitonimik komponentlar shunchaki botanik termin sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar, axloqiy mezonlar va insoniy fazilatlarni baholashning lisoniy o'lchovi sifatida xizmat qiladi [3:117]. Masalan, dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq "bug'doy", "arpa", "tariq" kabi fitonimlar yoki tabiat go'zalligini aks ettiruvchi "tut", "terak", "tol" kabi dendronimlar maqollarda ko'chma ma'no kasb etib, lisoniy tejamkorlik va badiiy tasviriylikni ta'minlaydi [5: 78].

Ushbu maqolaning maqsadi onomastikaning bir qismi bo'lgan fitonimlarning maqollar semantikasini shakllantirishdagi rolini aniqlash, ularning etnomadaniy xususiyatlarini ochib berish va o'zbek tili fitonimik manzarasining paremiologik fonddagi in'ikosini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Bu esa o'zbek onomastikasining nazariy bazasini boyitish bilan birga, milliy tilimizning ramziy va metaforik imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi [1: 56].

Asosiy qism. Paremiologiya va onomastika chorrahasida fitonimlarni o'rganish jahon va o'zbek tilshunosligida o'ziga xos an'anaga ega. Maqollarning lingvistik tabiati va ularning xalq donishmandligi sifatidagi o'rni V. Dal, F. Buslayev, A. Potebnya kabi rus olimlari, shuningdek, turkiy xalqlar paremiologiyasining yirik tadqiqotchilari ishlarida fundamental o'rganilgan [7: 116]. O'zbek tilshunosligida maqollarning lisoniy va badiiy xususiyatlari H. Zarifov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov kabi folklorshunos olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Fitonimlarning onomastik birlik sifatida shakllanishi va ularning leksik-semantik tizimidagi o'rni bo'yicha H.Hasanov, T. Nafasov, S. Qorayev kabi

onomast olimlarning izlanishlari diqqatga sazovordir [12: 44]. Aynan fitonimlarning lingvokulturologik va kognitiv jihatlari, ularning paremiyalardagi metaforik ko'chishlari so'nggi yillarda N. Mahmudov, A. Mamatov, Sh. Safarov kabi olimlarning ilmiy maktablarida yangicha talqin qilinmoqda [7: 89]. Biroq, maqollarda uchraydigan fitonimlarni yaxlit bir onomastik tizim sifatida, ularning etnomadaniy kodlarini ochib berish masalasi hamon dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda [8: 127].

Maqollardagi fitonimlar shunchaki tabiat obyekti emas, balki "lisoniy olam manzarasi"ning muhim tarkibiy qismidir [11: 89]. Kognitiv lingvistika va etnolingvistika nazariyalarida lisoniy olam manzarasi (LOM) inson tafakkuri, madaniy tajriba va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiruvchi tizim sifatida talqin etiladi. Fitonimik maqollar ana shu tizimning paremiologik birliklari bo'lib, ular orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va kognitiv modellar konkretlashadi [7: 36].

Nazariy jihatdan fitonimik maqollarni tahlil qilganda quyidagi asosiy ilmiy qarashlar yuzaga chiqadi:

1. Konseptual metaforizatsiya va antropomorfik ko'chishlar. Bu jarayon Lakoff va Johnsonning "konseptual metafora" nazariyasi asosida tushuntiriladi: "Insoniy fazilatlar, ijtimoiy holatlar yoki axloqiy qadriyatlar o'simliklarning biologik va tashqi xususiyatlariga ko'chiriladi" [13: 109]. Natijada fitonimlar nominativ ma'nosidan chiqib, antropomorfik va simvolik mazmunga ega bo'ladi. Masalan, "Mevali daraxtga tosh otarlar" maqolida mevali daraxt ilmli, foydali va jamiyatga xizmat qiluvchi insonning metaforasidir. Yana bir misol: "Olma olmadan rang oladi" yoki "Ko'chat qanday ekilsa, daraxt shunday o'sadi"

maqollari avlodlar o'rtasidagi meros va tarbiya konsepti bilan bog'liq bo'lib, o'simlikning o'sish dinamikasi inson rivojlanishining kognitiv modeli sifatida ishlatiladi [11: 56].

2. Etnokulturologik determinantlik va madaniy markerlar. Fitonimik maqollarning chastotasi va tanlanishi to'g'ridan-to'g'ri xalqning iqtisodiy-madaniy turmush tarzi, geografik muhiti va tarixiy tajribasi bilan belgilangan [8: 23]. O'zbek xalqining agrar va cho'l-dasht chorvachilik hayoti "tut", "bug'doy", "paxta", "yantoq", "terak" kabi fitonimlarni eng kuchli "madaniy marker"larga aylantirgan. Bu o'simliklar xalq ongidagi eng muhim semantik maydonlarni (mehnat, boylik, chidamlilik, hosildorlik) ifodalaydi [9: 78].

3. Semantik siljish va fitonimlarning onomastik-ramziy potensiali. Fitonimlar vaqt o'tishi bilan nominativ funksiyasidan simvolik funksiyaga o'tadi. Bu jarayon paremiologiyada "semantik siljish" deb ataladi [11: 95]. Masalan, "yantoq" (cho'l o'simligi, tikanli va quruq iqlimga moslashgan) qiyinchilik, chidamlilik va qanoat ramzi sifatida barqarorlashgan. "Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zar" kabi maqollar yantoqni nafaqat o'simlik, balki qiyin sharoitda ham foydali bo'lish, sabr-toqat va kamtarlik ramzi sifatida ko'rsatadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi, xususan, paremiologik fondida fitonimlar ishtirok etgan maqollar o'ziga xos semantik maydonni hosil qiladi. Ushbu lisoniy birliklar shunchaki dehqonchilik va bog'dorchilik qoidalari emas, balki xalqning ijtimoiy-axloqiy, falsafiy hamda iqtisodiy qarashlarini o'zida mujassam etgan etnomadaniy kodlardir. Lisoniy jihatdan olib qaraganda, fitonimik paremiyalarda o'simliklarning biologik va agrotexnik xususiyatlari (ekish vaqti, parvarishi, meva

berishi) inson xarakteri, jamiyatdagi o‘rni va hayotiy jarayonlarga metaforik tarzda ko‘chiriladi.

Tadqiqot uchun ajratib olingan maqollar korpusini tahlil qilish natijasida fitonimlarning quyidagi lisoniy-semantik qonuniyatlari namoyon bo‘ladi:

Fitonimlar o‘zbek xalq maqollarida lingvopoetik va lingvokulturologik jihatdan boy material hisoblanadi: *Arpa yotsa, ombor sol. Arpaga – o‘rim, Bug‘doyga – ko‘rim; Bir yil tariq eksang, bir yil shudgor qil; Bir yil tut ekkan kishi Qirq yil gavhar terar; Bog‘ni qishda ko‘l qil, Yozda cho‘l qil; Bug‘doy olaman desang, qovun polga ek, Paxta olaman desang – jo‘xori polga; Bug‘doy eksang, kuzda ek, Yaxshi haydab, bo‘zga ek; Javdar joyiga tushsa, bug‘doy bo‘lar, Bug‘doy joyiga tushmasa, javdar bo‘lar; Jo‘xori changda bitar, Tariq – balchiqda; Jo‘xori eksang, tagiga ko‘za botsin; Qovun ekkan qovoq olmas; Sada eksang, soyasi bor, Makka eksang – poyasi; Sada soya berar, Tol – xoda; Terakning soyasi tagiga tushmas; Tokni qirqmasang, Qashqarga yetar; Tol eksang, tagini ho‘l qil, Uzum eksang, tagini cho‘l qil; Eksang terak, elga kerak; Yantoqdan yog‘ chiqmas, Jangaldan – bog‘; Shaftolidan bog‘ qilma...; Pishgan qovun palakda yotmas;*

Quruq yog'och yonar, so'nar, Ho'l yog'ochdan hosil unar.

1. Maqollarning bir qismi bevosita dehqonchilik kalendari va agrotexnik qoidalar shaklida namoyon bo'ladi ("Bug'doy eksang, kuzda ek, yaxshi haydab, bo'zga ek"; "Bog'ni qishda ko'l qil, yozda cho'l qil"). Biroq kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan ularning tagida har bir harakatning o'z vaqti, sharoiti va o'lchovi borligi haqidagi pragmatik xulosa yotadi.

2. Donli ekinlar va poliz mahsulotlari ishtirok etgan maqollarda kuchli antiteza kuzatiladi ("Javdar joyiga tushsa, bug'doy bo'lar..."; "Qovun ekkan qovoq olmas"). Bu yerda onimlar insonning ijtimoiy muhiti va tarbiyasiga qiyoslanadi.



3. Daraxt nomlari (tut, terak, sada, tol) ishtirok etgan maqollar insonning jamiyatdagi faoliyati, foydalilik va merosini baholash uchun lisoniy etalon bo'lib xizmat qiladi ("Bir yil tut ekkan kishi, qirq yil gavhar terar"; "Terakning soyasi tagiga tushmas").

Fitonimlar maqollarda asosan tub ot shaklida qo'llaniladi va turli kelishik shakllarida (o'rin-payt, jo'nalish, chiqish) uchraydi. Masalan, "Arpaga – o'rim,

Bug'doyga – ko'rim" misolida jo'nalish kelishigi maqsad va natija munosabatini bildiradi. "Tol eksang, tagini ho'l qil, Uzum eksang, tagini cho'l qil" jumlalarida egalik va o'rin-payt kelishiklari shartli bog'lanishni ta'minlaydi. Derivatsion jarayonlar nisbatan kam; asosiy fitonimlar (tariq, tut, terak, sada, tok) tub morfema sifatida saqlanib qolgan.

Sintaktik jihatdan maqollar parallelizm, antiteza va qofiyaga asoslangan. "Jo'xori changda bitar, Tariq – balchiqda" misolida parallel kontrast orqali tuproq talablari taqqoslanadi [8: 44].

Semantik qatlamda literal va ko'chma ma'nolar uyg'unlashgan. Literal ma'no o'simlikning biologik xususiyatlarini (tuproq talabi, parvarish, hosil vaqti) aks ettirsa, ko'chma ma'no inson mehnati, sabr-toqat va hayot qonuniyatlarini ifodalaydi. Semantik siljish natijasida o'simlik nomi abstrakt tushunchaga aylanadi: hosil → muvaffaqiyat, bog' → obod hayot, yer → boylik [11: 78]. Bu jarayon Lakoff va Johnsonning kognitiv metafora nazariyasiga mos keladi.

Xulosa. O'zbek xalq maqollarida fitonimlar lingvopoetik va lingvokulturologik jihatdan boy va ko'p qirrali material hisoblanadi. Ular morfologik jihatdan ixchamlik va ritmiklikni, sintaktik jihatdan parallelizm va estetik qimmatni, semantik jihatdan esa literal va metaforik ma'nolar uyg'unligini ta'minlaydi. Pragmatik va lingvokulturologik nuqtai nazardan fitonimlar dehqonchilik madaniyatini aks ettiruvchi muhim madaniy kod vazifasini bajaradi. Ular o'zbek xalqining agrar dunyoqarashini, tabiat bilan uyg'unlikni va mehnatsevarlik falsafasini saqlab qolgan bo'lib, "yer – suv – mehnat – hosil" lingvomadaniy triadining asosiy komponenti sifatida avloddan-avlodga milliy qadriyatlar va etnobotanik bilimlarni o'tkazishda muhim rol o'ynaydi. Umuman

olganda, o‘zbek xalq maqollaridagi fitonimlar tilshunoslik, etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik uchun qimmatli manba bo‘lib, xalqning milliy mentalitetini, hayotiy tajribasini va tabiat bilan munosabatini chuqur aks ettiradi. Ushbu materiallarni yanada chuqurroq tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlarini boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanov H. O‘zbek onomastikasining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 1985. – 124 b.
2. Jumashova S. Fitonimlarning etimologik va leksik-semantik xususiyatlari (fransuz va o‘zbek tillari misolida) // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – Toshkent, 2025. – № 3.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 276 p.
4. Mamatov A. Lingvokulturologik tadqiqotlar. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 186 b.
5. Mirzayev T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – 240 b.
6. Muqimova G.R. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida fitonimlar // Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Buxoro, 2023. – № 4. – B. 56-62.
7. Nafasov T. O‘zbek toponimlarining lug‘aviy-semantik tahlili. – Toshkent: Fan, 1988. – 160 b.
8. Qorayev S. O‘zbek onomastikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005. – 192 b.
9. Ramazonovna A.N. Proverbs and sayings with phytonyms and their analysis in compared languages // European Scholar Journal. – 2024. – Vol. 5. – № 2. – P. 48-52.
10. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 210 b.

11. Sarimsoqov B. Paremiologiya masalalari. – Toshkent: Fan, 1995. – 148 b.
12. Xoshimxo'jayeva M. Olamning lisoniy tasvirida fitonimlar (ingliz, rus va o'zbek tillari misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2005. – 24 b.
13. Zarifov H. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Fan, 1970. – 180 b.